



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY TARAQQIYOT  
VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VAZIRLIGI HUZURIDAGI  
“LOYIHALAR VA IMPORT KONTRAKTLARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISH MARKAZI”  
DAVLAT UNITAR KORXONASI**

2022-yil 24 feodal № 14/01-OB/2-1064 100084, Toshkent, Amir Temur shoh ko'chasi, 107-B

“UzAuto Motors” AJga

**Xarid hujjatlarining kompleks ekspertizasi yakuniga ko'ra  
EKSPERT XULOSASI**

**Xarid predmeti**

“UzAuto Motors” AJ ning aksiyalarini “Toshkent” Respublika fond birjasida va keyinchalik xorijiy fond birjalarida birlamchi ommaviy taklifi (IPO) tashkilotchisining (anderrayter) xizmatlari

**Buyurtmachining murojaat  
raqami va sanasi**

2022 yil 31 yanvardagi 22FB-6301-00552-son ariza (Markaz saytida 33799-son bilan ro'yxatga olingan)

**Buyurtmachi**

“UzAuto Motors” AJ

**Loyihani amalga oshirish  
uchun asos**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PF-6207-son “Kapital bozorini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan “Kapital bozorini 2021-2023 yillarda rivojlantirish dasturi”;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-iyuldaggi PQ-4397-son “O'zbekiston Respublikasi avtomobil sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-yanvardagi PQ-90-son “Kapital bozorini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori va ushbu qaror ijrosini tashkil etish bo'yicha tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasi.

**Moliyalashtirish manbai**

Buyurtmachining o'z mablag'lari

**Boshlang'ich narx**

9 000 000,0 AQSh dollari (QQS siz),  
buyurtmachining 31.01.2022 yildagi  
22FB-1400-00742-son xati bilan ilova qilingan  
ma'lumotnomaga asosan belgilangan.

**Ekspertiza o'tkazish uchun  
asos**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
2018-yil 8-yanvardagi PQ-3464-son  
va 2018-yil 20-fevraldagi PQ-3550-son  
qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy  
taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish  
vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import  
kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish  
markazi" DUK (keyingi o'rinnlarda – Markaz)  
va "UzAuto Motors" AJ o'rtasida tuzilgan  
2021-yil 10-avgustdagi Əkc-90/2 sonli  
shartnomasi

**Ekspertiza uchun to'lov 31 050 000,0 so'm, 03.02.2022 yil  
miqdori va sanasi**

Markaz "UzAuto Motors" AJ ning aksiyalarini "Toshkent" Respublika fond  
birjasida va keyinchalik xorijiy fond birjalarida birlamchi ommaviy taklifi (IPO)  
tashkilotchisining (anderrayter) xizmatlarini sotib olish uchun xarid hujjatlarini  
kompleks ekspertiza qilish natijalariga ko'ra, quyidagilarni ma'lum qiladi.

Tender bo'yicha xarid hujjatlari, shu jumladan, elektron tender ishtirokchilari  
uchun yo'riqnomalar, texnik topshiriq Markaz tomonidan buyurtmachiga ishchi  
tartibda yuborilgan izoh va e'tirozlari qabul qilinib, qayta ishlab chiqilganligini  
inobatga olgan holda buyurtmachi qonunchilikda belgilangan tartibda xarid qilish  
jarayonini amalga oshirishi, maxsus axborot portalida, ommaviy axborot  
vositalarida va buyurtmachining rasmiy veb-saytida tender o'tkazish to'g'risida  
e'lon joylashtirish orqali tenderda ishtirok etish uchun tashkilotlarni jalg' etilishini  
ta'minlashi zarur.

**Direktor**

Direktor o'rinnbosari

**M. Allabergenov**

Boshqarma boshlig'i

**V. Ismailov**Boshqarma boshlig'i  
o'rinnbosari**A. Dalxanov**Bo'lim boshlig'i  
o'rinnbosari**R. Saydaqulov****T. Karimova**

«TASDIQLAYMAN»

“Uzavtosanoat” AJ Boshqaruv raisi o‘rnibosari – “UzAuto  
Motors” AJ aksiyalarini IPO savdosini o‘tkazish  
uchun qo‘shma xarid komissiyasi raisi



A. Shukurov

“31” 01 2022.

“UzAuto Motors” AJning aksiyalarini “Toshkent” Respublika fond birjasida va keyinchalik xorijiy  
fond birjalarida birlamchi ommaviy taklifi (IPO) tashkilotchisining (anderrayter) xizmatlarini sotib  
olish uchun

### ELEKTRON TENDER HUJJATLARI

Buyurtmachi: “UzAuto Motors” AJ

Xarid komissiyasi a’zosi F.I.SH.	Inoyatova N.A	Mirzaev B.M.	Yusupov I.U.	Umurzakov K.J.	Shaymardonov R.R.	Otaxonova N.G.
Imzo						

Toshkent -- 2022y.

## **Mundarija**

- I. Elektron tender ishtirokchilari uchun yo'riqnomalar.
- II. Elektron tenderning texnik qismi.
- III. Elektron tenderning narx qismi.
- IV. Shartnoma loyihasi.

## I-Bo‘lim. Elektron tender ishtirokehilari uchun yo‘riqnomalar

### 1. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur elektron tender hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda “Qonun”)ga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.02.2018 dagi PQ-3550-sonli “Loyihaloldi, loyiha, tender hujjatlari va shartnomalarini ekspertizadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori (keyingi o‘rinlarda “Qaror”)ga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. Elektron tender mavzusi: “UzAuto Motors” AJ oddiy aksiyalarining 2022-yilda “Toshkent” Respublika Fond birjasida va 2022-2023 yillarda xorijiy fond birjalarida birlamchi ommaviy taklif (IPO) tashkilotchisining (anderrayter) xizmatlarini xarid qilish.

1.3. Elektron tenderni o‘tkazishga asos O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PF-6207-sonli “Kapital bozorini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan “Kapital bozorini 2021-2023 yillarda rivojlantirish dasturi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-yanvardagi PQ-90-sonli “Kapital bozorini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo‘sinchcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

1.4. Elektron tenderning boshlang‘ich narxi va valyutalari tender hujjatlarining narx qismida ko‘rsatilgan.

1.5. Sotib olinadigan xizmatlar va ishlar uchun texnik topshiriqlar tender hujjatlarining texnik qismida ko‘rsatilgan.

1.6. Xarid komissiyasining majlislari xarid komissiyasi a’zolarining bevosita ishtirokida yuzma-yuz o‘tkaziladi. Yuzma-yuz majlislar va videokonferentsiyalar (telekonferentsiyalar va hokazo) shaklida o‘tkazilishi ham mumkin.

### 2. Elektron tender tashkilolchilari

2.1. Elektron tender buyurtmachisi “UzAuto Motors” AJ (keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi”) hisoblanadi. Buyurtmachining yuridik manzili: O‘zbekiston Respublikasi, 170200, Asaka sh., Xumo k-si, 81. Buyurtmachining rekvizitlari: MFO 00043, STIR 200244767, x/r 2021 4000 8005 3230 5001 AKB “Asaka” Asaka filiali.

Buyurtmachining aloqa bog‘lovchi vakili: Korporativ va mulkiy munosabatlar boshqarmasi bosh mutaxassis Haydarov Anvar.

email: anvar.haydarov@uzautomotors.com tel.: +99878 140 55 40 #3 1732/

2.2. Elektron tender komissiyasining ishchi organi “UzAuto Motors” AJ Korporativ va mulkiy munosabatlari boshqarmasi va Xalqaro moliyaviy tashkilotlari bilan hamkorlik direksiysi (keyingi o‘rinlarda “Ishchi organ”) hisoblanadi.

2.3. Shartnoma egasi “UzAuto Motors” AJ

2.4. Elektron tender hujjatlari qonunga muvofiq tashkil qilingan yetti kishidan iborat kompaniya komissiyasi tomonidan baholanadi.

### 3. Elektron tender ishtirokehilari

3.1. Elektron tenderda O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari ishtirok etishlari mumkin. Ushbu tender hujjatlarining 4.2 bandida ko‘rsatilgan shaxslar bundan mustasno.

3.2. Elektron tenderda ishtorokchilar ko'pchilik nomidan konsortsium ko'rinishida (mahalliy va xorijiy anderrayter) ishtirok etishlari lozim va bunday holatda konsortsium nomidan bitta yuridik shaxs tenderda qatnashadi. Ishtorokchilar tomonidan taklif qilinayotgan konsortsiumdagi anderrayterlarning roli investorlar qamroviga qarab quyidagi tuzilmaga muvofiq aniq ko'rsatilishi kerak:

Global investorlar qamrovi + Mintaqaviy (MDH mintaqasi) qamrovi va Mahalliy investorlar qamrovi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 17 yanvardagi "Kapital bozorini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-90 son qaroriga muvofiq banklar va investitsiya vositachilariga O'zbekiston Respublikasida alohida litsenziya olmasdan qimmatli qog'ozlar bozorida anderrayting faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan hamda o'z mablag'lарining miqdori 500 mln so'mdan kam bo'lmagan mahalliy yuridik shaxslar bilan shartnoma tuzgan holda, anderrayting faoliyatini amalga oshirishga ruxsat berilgan.

#### 4. Tender o'tkazish tartibi

4.1. Tenderda ishtirok etish uchun ishtirokechilar:

Elektron tender shartlari bilan tanishish uchun tender hujjatlarining elektron versiyasini davlat xaridlarining maxsus axborot portalidan ([etender.uzex.uz](http://etender.uzex.uz)) yuklab olishi zarur va takliflarni qonunchilik talablari va muddatlariga hamda tender hujjatlariga muvofiq ravishda yuborishlari kerak.

4.2. Buyurtmachi quyidagi hollarda ishtirokechini xarid qilish jarayonidan chetlatadi:

- ishtirokechi davlat xaridlari jarayonida davlat buyurtmachisi tomonidan biror-bir xatti-harakatning sodir etilishiga, qaror qabul qilinishiga yoki biror-bir xarid qilish tartib-taomilining qo'llanilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida davlat buyurtmachisining yoki boshqa davlat organining istalgan hozirgi yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga har qanday shakldagi haqni, ishga yollash to'g'risidagi taklifni yoxud istalgan boshqa qimmatbaho ashyoni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilsa, bersa yoki berishga rozilik bildirsa;
- ishtirokchi raqobatga qarshi harakatlarni sodir etsa yoki qonunchilikni buzgan holda manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarsa, shuningdek affillanganlik hollari aniqlansa;
- Xarid komissiyasining yoki davlat xaridlari elektron tizimi operatorining ishtirokechini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatish to'g'risidagi qarori va buning sabablari xarid qilish tartib-taomillari haqidagi hisobotga kiritiladi hamda ular haqida tegishli ishtirokchiga darhol xabar beriladi.

4.3. Xarid komissiyasi tomonidan tender o'tkazilmagan deb e'lon qilinishi mumkin, agar:

- birinchi bosqichda xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etsa yoki faqat bitta taklif tenderda xarid qilish hujjatlari talablariga javob bersa;
- ikkinchi bosqichda xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etsa.

4.4. Buyurtmachi istalgan vaqtida tender g'olib qabul qilinishidan oldin tenderni bekor qilishga haqli. Tender tanlovi bekor qilingan taqdirda, bunda buyurtmachi tender tanlovini bekor qilonganligining asosli sabablarini maxsus axborot portalida e'lon qiladi.

#### 5. Elektron tender tili, o'lechov birligi.

5.1. Ishtirokchi va buyurtmachi o'rtasida amalga oshirilayotgan tender taklifi va unga bog'liq yozishmalar (hujjatlar) o'zbek tilida bo'lishi kerak. Agar tender taklifi boshqa tilda taqdim qilinsa, u holda uning o'zbek tilidagi aniq tarjimasi ilova qilinishi kerak. Birdan ortiq tildan foydalanilganda, tender matnida tafovut bo'lsa o'zbek tilidagi matn ustun qo'yiladi. Texnik hujjatlarni ingliz tilida taqdim qilishga ruxsat etiladi.

5.2. Elektron tender takliflarida umumiy qabul qilingan o'lechov tizimidan foydalanilishi kerak.

## **6. Elektron tender taklifi va uni rasmiylashtirish tartibi.**

6.1. Portalda e'lon qilingan Elektron tender ishtirokchilari e'londa ko'rsatilgan takliflarini elektron konvert ko'rinishida o'zlarining shaxsiy kabinetlari orqali elektron tenderni o'tkazish to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmay taqdim etadilar. Elektron taklifda (texnik va narx taklifi) bo'lishi lozim.

6.2. Ishtirokchining elektron tender taklifini tashkil etuvchi elektron hujjatlar operator tomonidan belgilangan formatlarda taqdim etiladi. Elektron tizimga joylashtirilgan elektron hujjat ishtirokchining ERIsi bilan tasdiqlanadi.

6.3. Elektron tender taklifi bilan birqalikda ishtirokchilar eskizlar, rasmlar, chizmalar, fotosuratlar va boshqa hujjatlarni fayl sifatida joylashtirishlari mumkin.

Bunda ishtirokchilarning tender takliflari elektron tizimda shablonlarga muvofiq hujjatlarni biriktirish orqali taqdim etiladi. Ishtirokchi tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlar biriktirilgan hujjatlardagi ma'lumotlarga mos kelishi kerak.

6.4. Elektron tender ishtirokchisi bitta lotga faqat bitta elektron tender taklifini berishga haqli.

6.5. Elektron tender ishtirokchisi taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyligi va to'g'riligi uchun javobgar bo'лади.

6.6. Joylashtirilgan e'londa ko'rsatilgan muddat va vaqtida elektron tizim elektron tender takliflarini qabul qilishni to'xtatadi.

6.7. Elektron tender takliflari elektron tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan muddatda o'z kuchida qoladi.

6.8. Elektron tender ishtirokchisi elektron tender bo'yicha xarid qilish hujjatlaridagi talablarni tushuntirish talabi bilan buyurtmachiga ochiq elektron chat orqali elektron tender takliflarini berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki ish kuni oldin so'rov yuborishga haqli.

6.9. Buyurtmachi so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida ushbu so'rovga ochiq elektron chat orqali tushuntirish yuboradi.

6.10. Elektron tender taklifi ikki qismdan iborat:

- texnik qism buyurtmachining texnik talablariga mos kelishi lozim va taklif qilinayotgan xizmat haqida batafsil ma'lumotni o'zida mujassam qilgan bo'lishi kerak;
- narx qismi tender shartlariga mos kelishi kerak va tender taklifining narx qismidagi talablarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni (shu jumladan, xizmat nomi, har bir xizmat narxi, barcha soliqlar qo'shilgandagi umumiy narx, to'lov shartlari, taklifning amal qilish muddati va h.k.) o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

6.11. Texnik takliflar to'plami quyidagi hujjatlarni o'z ichiga olishi kerak:

- texnik taklifi hamda ushbu qo'llanmaga ilova qilingan 4-shakl bo'yicha taklif etilayotgan xizmatning texnik tavsiflarining qiyosiy jadvali;
- texnik hujjatlar ro'yxati (broshyuralar, texnik ma'lumotlar varaqlari, foydalanish yo'riqnomalari va boshqalar yoki taklif etilayotgan xizmatning to'liq va batafsil tavsifini o'z ichiga olgan boshqa hujjatlar.

6.12. Narx taklifi ushbu qo'llanmaga ilova qilingan 5-shaklga muvofiq narx taklifi va narxlar jadvalini o'z ichiga oladi.

6.13. Tender takliflari <http://xarid.uzex.uz> portalida e'lon berilgan kundan boshlab 14 (o'n to'rt) ish kuni ichida (soat 17:00 gacha) yoki "\_\_\_" 2022 yil soat 17:00ga qadar qabul qilinadi. Belgilangan muddatdan keyin olingan takliflar ko'rib chiqilmaydi.

6.14. Tender taklifi amal qilish muddati tender taklifi taqdim qilishning so'nggi kunidan boshlab kamida 45 (qirq besh) ish kunni tashkil qilishi kerak.

6.15. Tender ishtirokchisi:

- taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning haqiqiyligi va to'g'riliqi uchun javobgardir;
- faqat bitta taklif kiritish huquqiga ega;
- taqdim etilgan taklifni takliflarni kiritish muddati tugagunga qadar qaytarib olish yoki o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega;
- asosiy benefisiyar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qiladi;
- korruptsiyaning oldini olish bo'yicha bayonotlar beradi;
- g'olib deb topilgan taqdirda, Buyurtmachi bilan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda shartnoma tuzadi;
- o'ziga affillangan shaxs bilan tender lotida qatnashish huquqiga ega emas.

## 7. Elektron tender takliflarini taqdim qilish muddatini uzaytirish.

7.1. Xarid komissiyasi, tender ishtirokchisi tomonidan asoslantirilgan xolda, barcha tender ishtirokchilariga taalluqli bo'lgan tender savdosining yopilish sanasini (tender takliflarini topshirish muddatini uzaytirish) kechiktirish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin va o'n ish kuniga uzaytiriladi.

7.2. Muddatni uzaytirish to'g'risidagi qaror faqat xarid komissiyasining majlisida qabul qilinadi.

7.3. Elektron tender takliflarini qabul qilish muddatlarini uzaytirish to'g'risidagi e'lonlar maxsus axborot portalida joylashtiriladi va boshqa ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

## 8. Elektron tender natijalarini sarhisob qilish.

8.1. Elektron tender, agar unda birgina ishtirokchi qatnashgan bo'lsa yoki unda hech kim qatnashmagan bo'lsa, tender o'tkazilmagan deb hisoblanadi.

8.2. Xarid komissiya tomonidan belgilangan muddatlarda o'tkazilganda, elektron tizim ishtirokchilar tomonidan avtomatik tarzda joylashtiriladi va ularning elektron tender takliflarini tashkil etuvchi elektron hujjatlar bilan tanishish imkonini beradi.

8.3. Takliflarni ko'rib chiqish va baholash muddati tender takliflari berilgan kundan boshlab qirq besh ish kunidan oshmasligi kerak.

8.4. Ishtirokchi tomonidan ilova qilingan fayllar elektron tender taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga mos kelishi va elektron tizimdagи elektron maydonlarni to'ldirishi kerak.

8.5. Elektron tizim ishtirokchi tomonidan taklif qilingan narxning boshlang'ich bahoga mos kelishini hamda elektron maydonlar to'ldirilganligini hamda ilova qilingan fayllar mavjudligini tekshiradi. Agar ishtirokchi tomonidan taklif qilingan narx boshlang'ich bahodan yuqori bo'lsa, shuningdek, to'ldirilmagan maydonlar mavjud bo'lsa yoki ilova qilinishi kerak bo'lgan fayllar ilova qilinmagan bo'lsa, elektron tizim rad etish sababini ko'rsatgan holda ishtirokchining taklifini rad etadi. Ilova qilingan fayllardagi ma'lumotlar ishtirokchining elektron tender taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish xarid komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

8.6. Elektron tenderlarni baholash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- elektron tender taklifi elektron xarid hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiq rasmiylashtirilganligini tekshirish;

- elektron tender taklifining texnik qismini baholash;
- elektron tender taklifining narx qismini baholash.

Bunda elektron tizim elektron tender taklifini oldingi baholash tugagandan so'ng uning malaka, texnik va narx qismlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarning ketma-ket oshkor etilishini ta'minlaydi.

8.7. Agar elektron tender taklifi Qonun va elektron xarid hujjatlari talablariga javob bersa, u tegishli tartibda rasmiylashtirilgan hisoblanadi. Xarid komissiyasi mas'ul kotibining elektron tender hujjatlari talablariga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi to'g'risidagi qarori xarid komissiyasi tomonidan uzrli sabablari ko'rsatilgan holda tasdiqlanishi kerak.

8.8. Ishtirokchining elektron tender taklifining nomuvofiqligi to'g'risidagi qaror qabul qilingan kuni ishtirokchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

8.9. Elektron tender g'olibini aniqlash uchun rad etilmagan elektron takliflarni baholash elektron xaridlar hujjatlarida belgilangan mezonlar va usullar asosida amalga oshiriladi.

8.10. Xarid komissiyasining mas'ul kotibi elektron tenderlarni baholashda elektron tanlov ishtirokchilaridan ularning elektron tanlovlari bo'yicha tushuntirishlar so'rashga haqli. Ushbu jarayon elektron shaklda amalga oshiriladi.

8.11. Elektron tender taklifining miqdoriy ko'rsatkichlari, shu jumladan narx qismini baholash elektron tizim tomonidan avtomatik tarzda amalga oshiriladi.

8.12. Takliflarning miqdoriy ko'rsatkichlarga ega bo'limgan texnik qismi (ekspert mezonlari) mezonlari bo'yicha takliflarni baholash va taqqoslash xarid komissiyasi tomonidan ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

8.13. Miqdoriy ko'rsatkichlar asosida mezonlarni baholashda:

- elektron xaridlar hujjatlarida ko'rsatkichlarning minimal va maksimal qiymatlari belgilanishi mumkin;
- miqdoriy ko'rsatkichlari minimal va maksimal hisoblangan qiymatlar orasida bo'lgan ishtirokchilar uchun koeffitsient - uning miqdoriy ko'rsatkichining minimal va maksimal hisoblangan qiymatlar orasidagi farqga nisbati;
- agar ishtirokchining ma'lum bir mezon bo'yicha miqdori elektron tender hujjatlarida ko'rsatilgan shartlarga muvofiq hisoblangan minimal qiymatdan kam bo'lsa, ishtirokchiga eng past ball beriladi;
- agar ma'lum bir mezon bo'yicha ishtirokchining miqdori maksimal hisoblangan qiymatdan yuqori bo'lsa, uning ko'rsatkichi maksimal hisoblangan qiymatdan qanchalik yuqori bo'lishidan qat'i nazar, u ushbu mezon bo'yicha beriladi;
- Miqdoriy yoki ekspert mezonini baholash elektron tizim tomonidan berilgan ball ushbu mezon qiymatiga ko'paytirish orqali avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

8.14. Elektron tizim elektron xaridlar hujjatlarida belgilangan shartlar asosida avtomatik ravishda ishlab chiqiladi:

- elektron tender taklifining texnik va narx qismlarini baholashni inobatga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchi (balli usuldan foydalangan holda);
- Elektron tender takliflarning texnik qismini baholash natijalariga ko'ra, elektron tenderda qatnashishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni (eng past narx usulidan foydalangan holda) taklif qilgan ishtirokchi g'olib deb topiladi.
- Agar ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ballga ega bo'lsa (ballar usulida) yoki bir xil narxni taklif qilgan bo'lsa (eng past narx usulida), elektron taklifni biringchi bo'slib qo'ygan ishtirokchi g'olib hisoblanadi.

Zaxira ijrochisini aniqlash ushbu bandda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

8.15. Xarid komissiyasining qarorlari uning a'zolari umumiyl sonining ko'pehilik ovozi bilan qabul qilinadi.

8.16. Xarid komissiyasi a'zolari yig'ilishning elektron tizimda avtomatik tarzda shakllantiriladigan elektron bayonnomalarini ERIdan foydalangan holda tekshiradi. Elektron deklaratsiyadan ko'chirma avtomatik tarzda davlat xaridlarining elektron tizimida e'lon qilinadi.

8.17. Har qanday ishtirokchi elektron tender taklifi va baholash to'g'risidagi e'lonidan keyin davlat buyurtmачisiga elektron tanlov natijalari bo'yicha tushuntirish berishni talab qilishga haqli.

8.18. Buyurtmachi bunday so'rov olingen kundan e'tiboran uch ish kuni ichida ishtirokchiga tegishli tushuntirishlarni beradi.

## **9. Tomonlarning javobgarligi va maxfiylikka rioxasi qilish**

9.1. Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikka tortiladilar:

- ishchi organ tarkibiga kiruvchi shaxslar;
- davlat xaridlari elektron tizimining operatori;
- xarid komissiyasining raisi va a'zolari, shuningdek tender takliflarini o'rganish bo'yicha tuzilgan ishchi guruh a'zolari ma'lumotlarni oshkor qilganlik, ishtirokchilar, komissiyaning boshqa a'zolari va jalb qilingan ekspertlar bilan til biriktirishga yo'l qo'yanliklari, shuningdek boshqa qonunga xilof harakatlar sodir etganliklari uchun;
- shartnomaga bo'yicha majburiyatlarni (miqdoriy va texnik ko'rsatkichlar bo'yicha) bajarmagan tender g'olib O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va/yoki tuzilgan shartnomaga muvofiq javobgar bo'ladi.

## **10. Shartnoma tuzish**

10.1. Tanlov natijalari bo'yicha tender g'olib bilan xarid hujjatlarida va shartnoma tuzilgan ishtirokechi tomonidan taqdim etilgan taklifda ko'rsatilgan shartlar bo'yicha shartnoma tuziladi. G'olib shartnoma tuzishdan bosh tortgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda zaxiradagi g'olib g'olib tomonidan taklif etilgan narxda (bundan zaxiradagi g'olib taklif etgan narx g'olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo'lgan hollar mustasno) shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlanmagan bo'lsa yoki zaxiradagi g'olib shartnoma tuzishdan bosh tortsa, Buyurtmachi yangi tender o'tkazadi.

## **II. BO'LIM. Elektron tenderning Texnik qismi**

### **Ko'rsatilayotgan xizmatlarning soni, hajmi va xususiyati (talablari)**

Xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) Ishtirokchi tomonidan Tender hujjatlarining texnik qismi, 1-ilovasida ko'rsatilgan "Texnik topshiriq" (keyingi o'rinda – TT deb yuritiladi) talablariga muvofiq amalga oshirilishi talab qilinadi.

#### **Hlova/Attachment: Texnik topshiriq (TT)**



## **III. Xizmatlar narxi bo'yicha**

Elektron tenderga havola etilgan narxlar taklif qilingan narxdan oshirilmasligi kerak va keyinchalik o'zgartirilmaydi.

Ishtirokchi tomonidan, xizmat narxlari **QQS bilan** va **QQS siz** taqdim etiladi.

Taklif kilinayotgan narxlar va narxlar jadvali Ishtirokchi tomonidan Tender hujjatlarining narxlar qismida keltirilgan 5-shaklga asosan taqdim qilinadi.

Ishtirokchi tomonidan xizmatlar, ishlar birligining narxlari ko'rsatilishi shart.

Agar Buyurtmachi tomonidan narx shakllanish jadvali taqdim etilgan holda, Ishtirokchi tomonidan to'ldirilgan jadval elektron ko'rinishda taqdim etilishi shart. Barcha narx shakllanishidagi formulalar kuzatilishi imkonи va narxlarni tarkibiy qismlari shaffof va tushunarli bo'lishi lozim. Yashirin formulalar yoki narxlar shakllanishidan foydalanmaslik lozim.

Buyurtmachi, Ishtirokchi tomonidan asosiy narx taklifiga har qanday qo'shimcha yoki muqobil narx takliflarini ko'rib chiqmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi.

	Boshlang'ich narxi	<i>9.0 mln AQSH dollarasi (QQSsiz)</i>
1		<i>(Mahalliy va xorijiy fond birjalaridan joylashtirilgan aksiyalar umumiy qiymatining 4% miqdoridan oshmagani holda).</i>
		<i>Takliflarda narxlar mahalliy va xorijiy fond birjalaridan joylashtirilgan aksiyalar umumiy qiymatining foiz (%) ko'rinishida berilishi lozim. Boshqa ko'rinishda berilgan takliflar qabul qilinmaydi.</i>
2	Moliyalashtirish manbai	<i>Buyurtmachining mablag'lari asosida</i>
3	To'lov shartlari va to'lov tartibi	<i>To'lovlar shartnomaning III-bo'limida keltirilgan shartlarga muvofiq amalga oshiriladi</i>
4	To'lov valyutasi	<i>AQSh dollarasi va O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida (so'm)</i>
5	Xizmat ko'rsatish vaqtি	<i>Xizmatlar ko'rsatish bo'yicha shartnoma imzolangan kundan boshlab xizmatlar ko'rsatish boshlanadi va mahalliy fond birjasida 2022 yil 31 dekabr va xorijiy fond birjalarida joylashtirish vaqtি 2023 yil 31 dekabrga qadar.</i>
6	Xizmatlarni ko'rsatish joyi (ishni bajarish)	<i>Toshkent sh. Amir Temur mavzeyi, 13 uy (masofadan turib xizmat ko'rsatilishi mumkin kelishuvga qarab o'zgarishi mumkin)</i>
7	Tender uchun takliflar taqdim etilishining amal qilish muddati	<i>20 ish kuni</i>

#### IV-BO'LIM. Elektron tender takliflarini baholash tartibi va mezonlari

##### 1. Takliflarni texnik baholash.

xarid komissiyasi tomonidan ushbu jadvalda ko'rsatilgan texnik baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi. Agar taklifi texnik baholash natijalariga ko'ra, ishtirokchi blokirovka mezoni bo'yicha "0" ball to'plagan bo'lsa, u holda ushbu ishtirokchi xarid komissiyasi tomonidan tenderda ishtirok etishdan chetlashdiriladi va uning taklifi keyingi ko'rib chiqilmaydi.

$$\text{Ball} = (\text{To'plangan ballar} / \text{Maksimal ball}) * \text{Kategoriya vazni}\%$$

##### Texnik baholash mezonlari

No	Mezonlar	Baholash	Hisob	Umumi y	Maksi mal ball

			bahoda gi vazni	
1	Kapital bozorlarida anderrayter tajribasi (jumladan, avtomobilsozlik sanoati hamda MDH mintaqasi va rivojlanayotgan mamlakatlar emitentlari bilan bo'lgan IPO/SPO va shunga o'xshash tranzaksiyalar:	<p>Kapital bozorlarida avtomobilsozlik sanoati hamda MDH mintaqasi va rivojlanayotgan mamlakatlar emitentlari bilan bo'lgan IPO/SPO va shunga o'xshash tranzaksiyalar:</p> <p>1. So'nggi 5 yildagi tranzaksiyalar soni va hajmi (jumladan, avtomobilsozlik sanoati emitentlari bo'yicha).</p> <p>2. Amalga oshirilgan tranzaksiyalar geografiyasi (mamlakatlar soni).</p> <p>3. Uzauto Motors AJ IPOSi uchun ajratilgan jamoaning malakasi va tajribasi (xususan, avtomobilsozlik sanoati emitentlari bo'yicha). Uzauto Motors AJ IPOSi uchun ajratilgan jamoa a'zolari bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni taqdim eting:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- malaka va tajriba (jumladan, avtomobilsozlik sanoati emitentlari bo'yicha);</li> <li>- faoliyat olib boradigan mamlakat;</li> <li>- tashkilotdagi lavozimi;</li> <li>- tranzaksiyadagi roli; aloqa ma'lumotlari (telefon, elektron manzil va boshqalar).</li> </ul>	<p>Takliflar yuqorida pastgacha tartiblanadi:</p> <p>Yuqori kvartil daraja uchun 15 ball</p> <p>2-kvartil o'rinni uchun 12 ball</p> <p>3-kvartil o'rinni uchun 9 ball</p> <p>Pastki chorak uchun 6 ball</p> <p>Taqdim etilmagan ma'lumot uchun 0 ball</p>	40%  20%  40%

15

2	Investitsiyalar tarixi va kompaniyani baholash	<p>Quyidagi atributlar bo'yicha investitsiyalar tarixi va kompaniyani baholashning nisbiy bahosi:</p> <p>1. Investitsion tahlil:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- tashkilotingiz kompaniyaning investitsion jozibadorligi (equity story) qanday namoyish qilishi va investitsion tahlilini qanday amalga oshirmoqchiligini tasvirlab bering;</li> <li>- investorlarni qiziqtiradigan birlamchi va ikkilamchi qiyosiy kompaniyalar haqida o'z fikringizni bildiring;</li> <li>- aksiyalari ommaviy joylashtirilgan qiyosiy kompaniyalarning faoliyatini baholashda foydalaniladigan tegishli baholash ko'rsatkichlarini tavsiflang;</li> <li>- qiyosiy kompaniyalarga nisbatan kompaniyaning kuchli/zaif tomonlarini tavsiflang;</li> <li>- sizning fikringizcha kompaniyaning investitsion jozibadorligi namoyish qilishdagi muammolar va uning raqobatbardoshligini ta'minlovchi boshqa kompaniyalarga nisbatan farqli jihatlari nimalardan iborat;</li> <li>- kompaniyaning dividend siyosati haqida fikringizni bildiring.</li> </ul>	<p>Takliflar yuqorida pastgacha tartiblanadi:</p> <p>To'liq va yuqori sifatlari ma'lumot uchun 15 ball</p> <p>Chala va o'rta sifatlari ma'lumotlar uchun 10 ball</p> <p>Qoniqarsiz ma'lumotlar uchun 5 ball</p> <p>Taqdim etilmagan ma'lumot uchun 0 ball</p> <p>20%</p>	
		<p>2. Potentsial investorning xavotirlari va ularni kamaytirish:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- investor nuqtai nazaridan asosiy risklarni (xavf-xatar) tavsiflang va ularni</li> </ul>		20%

	<p>kamaytirish bo'yicha tavsiyalaringizni bering.</p>		
	<p>3. Tayyorgarlik materiallari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- tashkilotning tomonidan IPOni rasmiylashtirish uchun zarur deb hisoblangan asosiy tayyorgarlik materiallarini tavsiflang (masalan, biznes-reja, moliyaviy model, kompaniyani baholash hisoboti, mustaqil sanoat tahlili hisoboti va boshqalar).</li> </ul>	20%	
	<p>4. Kapital tuzilishi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- kompaniya uchun optimal bo'lgan kapital tuzilmasi bo'yicha o'z fikringiz va tavsiyalaringizni bildiring;</li> <li>- kompaniya uchun optimal bo'lgan kapital xarajatini (cost of capital) ko'rsating.</li> </ul>	20%	
	<p>5. Korporativ boshqaruv:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- kompaniya uchun optimal bo'lgan korporativ boshqaruv siyosatini, jumladan Boshqaruv Kengashining maqbul tuzilishi, tegishli qo'mitalar va Kengashdagi ijrochi bo'limgan direktorlar soni bo'yicha tegishli tavsiyalar bering.</li> </ul>	20%	

3	Tranzaksiya tuzilmasi	<p>Quyidagi attributlar bo'yicha tranzaksiya tuzilmasining nisbiy bahosi:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Talab, taklif hajmi va muddati: <ul style="list-style-type: none"> <li>- IPO hajmi va tuzilishi bo'yicha tavsiyalar va asoslar.</li> <li>- IPOning bir qismi sifatida tayyorlanishi kerak bo'lgan asosiy bitim hujjatlarini ko'rsating.</li> <li>- Tranzaksiya (IPO) vaqtি:           <ul style="list-style-type: none"> <li>(1) tashkilotingizning tranzaksiya uchun optimal bo'lgan vaqtni taklif qiling va asoslang;</li> <li>(2) IPOni amalga oshirish jadvalini bosqichlar va amalga oshirilishi zarur bo'lgan ishlarni aniq ko'rsatgan holda taklif qiling.</li> </ul> </li> <li>- Marketing strategiyasi:           <ul style="list-style-type: none"> <li>(1) IPO marketing jarayonining bir qismi sifatida investorlarga qanday va qachon murojaat qilish bo'yicha tavsiyalaringizni bildiring;</li> <li>(2) "Anchor" / "cornerstone" investorlarni jalb qilish bo'yicha fikringiz;</li> <li>(3) tashkilotingizning IPO jarayonining dastlabki marketinggi (early-look marketing of IPO) bo'yicha yondashuvini tavsiflang.</li> </ul> </li> </ul> </li> <li>2. Talab va maqsadli investorlar: <ul style="list-style-type: none"> <li>- talabning taxminiy tahlili va taqsimlash strategiyasi bo'yicha fikrmulohazalaringizni tavsiflang;</li> <li>- kompaniyaning maqsadli investorlari, shu jumladan ularning kompaniya kapitalining jozibadorligi tahlili va baholashga umumiyl yondashuv</li> </ul> </li> </ol>	<p>Takliflar yuqorida pastgacha tartiblanadi:</p> <p>To'liq va yuqori sifatli ma'lumot uchun 20 ball</p> <p>Chala va o'rta sifatli ma'lumotlar uchun 10 ball</p> <p>Qoniqarsiz ma'lumotlar uchun 5 ball</p> <p>Taqdim etilmagan ma'lumot uchun 0 ball</p>	10%	20

	<p>haqidagi fikrlaringizni tavsiflang;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- maqsadli investorlar ro‘yxatini va ularning rivojlanayotgan Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Afrika aksiya bozoridagi (EMEA ECM) tranzaksiyalarida ishtirokini taqdim eting.</li> </ul>				
	<p>3. Anderrayterlar konsortsiumi tuzilmasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- anderrayterlar konsortsiumi tuzilmasi bo‘yicha tavsiyalar: pudratchi va subpudratchilar soni va taklif qilingan anderrayterlar konsortsiumi tuzilmasi (kamida bitta xalqaro, bitta mintaqaviy va bitta mahalliy);</li> <li>- konsortsiumdagi anderrayterlarning aksiyalarni mahalliy va xalqaro kapital bozorlarida joylashtirish salohiyati;</li> <li>- konsortsiumdagi anderrayterlarning aksiyalarning bir qismi sotilmay qolgan taqdirda ular tomonidan ushbu aksiyalarni sotib olish bo‘yicha taklif (aksiyalar paketining %da).</li> </ul>	<p>Takliflar yuqoridan pastgacha tartiblanadi:</p> <p>Yuqori kvartil daraja uchun 20 ball</p> <p>2-kvartil o‘rin uchun 15 ball</p> <p>3-kvartil o‘rin uchun 10 ball</p> <p>Pastki chorak uchun 5 ball</p> <p>Taqdim etilmagan ma’lumot uchun 0 ball</p>	60%		
4	<p>Sotish, tarqatish va investor bilan ishslash bo‘yicha malaka va salohiyat</p>	<p>1. Savdo platformasi: mazkur turdagи tranzaksiya uchun aksiyalarni sotish va tarqatish (“distribution”) imkoniyatlari hajmi va ko‘lamini ko‘rsating (institutsional va chakana savdo imkoniyatlari, shu jumladan bozor ulushi).</p> <p>2. Ikkilamchi bozordagi faoliik (“Toshkent” respublika fond birjasida):</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- 2019-2021 yillarda amalga oshirilgan yillik savdolar soni;</li> </ul>	<p>Takliflar yuqoridan pastgacha tartiblanadi:</p> <p>Yuqori kvartil daraja uchun 15 ball</p> <p>2-kvartil o‘rin uchun 12 ball</p> <p>3-kvartil o‘rin uchun 9 ball</p>	<p>26,66% yoki maksimal 4 ball</p> <p>20% yoki maksimal 3 ball</p>	14

		<ul style="list-style-type: none"> <li>- 2019-2021 yillarda amalga oshirilgan yillik savdolar hajmi.</li> <li>- 2019-2021 yillarda birja savdo aylanmasidagi (hajmiga nisbatan) ulushi.</li> </ul>	<p>Pastki chorak uchun 6 ball Taqdim etilmagan ma'lumot uchun 0 ball</p>	
		<p>3. Savdo kampaniyasi: kompaniyaning investor marketing jarayonini boshqarish uchun mas'ul bo'lgan sotuvchi va turli mamlakatlarda joylashgan sotuv offislarining soni va ular bo'yicha ma'lumotlarni ko'rsating.</p>		20% yoki maksimal 3 ball
		<p>4. Kompaniyaning investorlar bilan aloqalarini qo'llab-quvvatlash uchun tashkilotningiz tomonidan taqdim etilishi mumkin bo'lgan har qanday investor konferentsiyalari, "Non-deal roadshow" tadbirlarini chet el mamlakatlarda (masalan, Buyuk Britaniya) yirik xalqaro institutsional investorlar ishtirokida tashkil etish bo'yicha takliflar (Qaysi turdag'i investorlar, ularning nomi va sonini ko'rsatgan holda).</p>		26,66% yoki maksimal 4 ball
5	Xizmat haqi	Xizmat haqi tarkibi (shu jumladan, agar IPO bozor sharoiti yoki boshqa sabablarga ko'ra keyinroq muddatga qoldirilgan bo'lsa, qo'shimcha to'lovlar).	<p>Takliflar yuqorida pastgacha tartiblanadi: Yuqori kvartil daraja uchun 30 ball 2-kvartil o'rinni uchun 25 ball 3-kvartil o'rinni uchun 15 ball Pastki chorak uchun 5 ball</p>	30

			O‘rnatilgan boshlang‘ich narxdan yuqori bo‘lsa yoki taqdim etilmasa 0 ball		
6	*Kutilayotgan ish hajmi texnik topshiriqlar (ish bayonnomasi) talablariga to‘liq javob beradi.	Baholash texnik topshiriqda keltirilgan barcha hujjatlarni yoki ishtirokchidan ularning muvofiqligini, sifatini va belgilarini tasdiqlovchi kafola xati taqdim etganligi	Bloklovchi Muvofiq bo‘lsa “6” ball Muvofiq emas “0” ball	6	

\*Ushbu mezon bo‘yicha 0 ball toplagan ishtirokchi xarid komissiyasi qaroriga muvofiq savdodan chetlashtiriladi.

## 2. Takliflarning narx qismini baholash

Baholash tender komissiyasi tomonidan anderrayting taklifida ko‘rsatilgan ma’lumotlar asosida texnik baholash o‘tkazilgandan so‘ng amalga oshiriladi.

Ballar = (To‘plangan ballar / Maksimal ball) \* Umumiyl bahodagi vazni %

### Narx qismini baholash mezonlari:

Nº	Mezonlar	Baholash
1	Narxi: Anderrayter xalqaro me’yorlar va taxminlarga muvofiq xizmat haqi tarkibini (shu jumladan, agar IPO bozor sharoiti yoki boshqa sabablarga ko‘ra keyinroq muddatga qoldirilgan bo‘lsa, qo‘sishimcha to‘lovlar) ko‘rsatishi kerak	Narxlarning eng past narxga nisbatan foizlarda o‘sib borishi, eng past narx uchun belgilangan ballar foizining xuddi shunday pasayishi sifatida baholanadi.  Taqdim etilmagan ma’lumot uchun 0 ball

## 3. Takliflarni har tomonlama baholash.

Anderrayterlar tomonidan 1 (Talkiflarni texnik baholash) va 2 (Takliflarni narx qismini baholash) bo‘limlar bo‘yicha to‘plangan ballar quyidagicha sanab o‘tiladi:

Ballar = (To‘plangan ballar / Maksimal ball) \* Umumiyl bahodagi vazni %

Mezonlar	Maksimal baho	Umumiyl bahodagi vazni	Ball
Texnik baholash	/100	99%	
Narx qismini baholash	/100	1%	

Jami			
------	--	--	--

Sana: « \_\_\_\_ » 2022y./

Eslatma: Xizmatning birlik narxi va umumiy narxi o'rjasida, shuningdek tender taklifining alohida hujjatlari o'rjasida ta'qovutlar mavjud bo'lgan taqdirda, Buyurtmachi o'zi uchun foydali bo'lgan narx (qiyomat) yoki shartlarni qabul qilishga haqli.

#### IV. Shartnoma loyihasi/ Draft contract



20220119 Contract  
template\_ru.docx



20220119 Contract  
template\_en.docx

1- ilova

#### Elektron tenderda ishtirok etish uchun ishtirokchilar tomonidan rasmiylashtiriladigan hujjatlar RO'YXATI

t/r	Tenderda ishtirok etish uchun ishtirokchilar tomonidan tuziladigan hujjatlar va ma'lumotlar	Izoh	Ishtirokechini chetlashtirish uchun asos
1	Elektron tenderda ishtirok etish uchun xarid komissiyasi raisi nomiga ariza (1-sonli shakl).	1-sonli shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi	Xarid komissiyasi qaroriga ko'ra
2	Elektron tender ishtirokchisining muhri bilan tasdiqlangan tashkilotning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi.	Hujjat mavjud bo'lмаган taqdirda, ishtirokchi keying bosqichga kiritilmaydi	Xarid komissiyasi qaroriga ko'ra
3	Quyidagilarni tasdiqlovchi kafolat xati:		
3.1	<ul style="list-style-type: none"> <li>- ishtirokchi qayta tashkil etish (bo'linish, birlashish) tugatish bosqichida emasligi;</li> <li>- buyurtmachi bilan sud yoki hakamlik muhokamasida ishi ko'rib chiqilmayotganligi;</li> <li>- ishtirokchi ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha zarur darajada bajarilmagan majburiyatlarining mavjud emasligi;</li> </ul>	2-sonli shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi	Xarid komissiyasi qaroriga ko'ra
3.2	- o'ziga nisbatan bankrotlik tartib-taomillarining joriy etilmaganligi.		Qonunning 42-moddasi
4	Elektron tender ishtirokchisi to'g'risidagi umumiy ma'lumot (3-sonli shakl)	3-sonli shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi	Xarid komissiyasi qaroriga ko'ra
5.	Taklif etilayotgan xizmatning texnik tavsiflarining qiyosiy jadvali (4-sonli shakl).	4-sonli shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi	

6	Soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorliklar mavjud emasligi to'g'risida ma'lumot	Vakolatli organdan ma'lumotnomha taqdim etiladi, agar muddati o'tgan qarzdorlik mayjud bo'lsa, ishtirokchi tenderda ishtirok etishdan chetlatiladi	Qonunning 42-moddasi
7	Korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ariza	S-sonli shaklga muvofiq rasmiy lashtiriladi	Qonunning 67-moddasi
8	Insofsiz ijrochilarining yagona reestrida qayd etilmaganligi	Agar ishtirokchi Insofsiz ijrochilarining yagona reestrida qayd etilgan bo'lsa, ishtirokchi keying bosqichga qo'yilmaydi	Qonunning 42-moddasi
9	Mansaatlar to'qnashuvi	Manfaatlar to'qnashuvi va affillanganlik holatlari bo'lgan ishtirokchilar keying bosqichga qo'yilmaydi	Qonunning 42-moddasi
10.	Imtiyozli soliq rejimini ta'minlaydigan va (yoki) moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda ma'lumotlarni oshkor qilish va taqdim etishni ta'minlamaydigan davlatlar va hududlar (offshor zonalar) ro'yxatiga aloqadorligi to'g'risida ma'lumot.	2-ilovadagi soliq va ma'lumotlarni oshkor etish bo'yicha imtiyozga rejimi bor davlatlar ro'yxati keltirilgan	(Davlat soliq qo'mitasining 2020-yil 6-sentabrdagi 2020-34-son, Davlat bojxona qo'mitasining 2020-yil 29-avgustdaggi 01-02 / 15-42-son qarorlari va Markaziy bank Boshqaruvi O'zbekiston 2020-yil 5-sentabrdagi 20/1-son (rost. 12.10.2020y. 2467-3-son)

*ISHTIROKCHI FIRMA BLANKIDA*

No: \_\_\_\_\_

Sana: \_\_\_\_\_

**ARIZA**

**Xarid komissiyasi**

Xizmat ko'rsatish uchun \_\_\_\_-sonli lot bo'yicha xarid hujjatlarini o'rganib chiqqandan so'ng (taklif etilayotgan xizmat nomini ko'rsating), so'rovlariga javoblar xarid hujjatlariga muvosiq xizmatlarni etkazib berish bo'yicha tenderda qatnashish niyatida.

Shu munosabat bilan biz quyidagi hujjatlarni elektron tarzda yuboramiz:

1. \_\_\_\_ varaqdagi malakaviy hujjatlar to'plami (varaqlar sonini ko'rsatish, agar risolalar, bukletlar, broshyurlar, CD va boshqalar taqdim etilgan bo'lsa, raqamni ko'rsating);
2. Elektron tender taklifining texnik qismi elektron tarzda;
3. Elektron tender taklifining narx qismi elektron tarzda;
4. Boshqa hujjatlar (agar boshqa hujjatlar taqdim etilsa, varaqlarning nomi va sonini ko'rsatish kerak).

TO'LIQ ISM. Tender taklifini tayyorlash uchun mas'ul shaxs:

Bog'lanish uchun telefon/faks: \_\_\_\_\_

E-mail manzili:

Rahbar yoki vakolatli shaxsning to'liq ismi sharifi va imzosi

Muxr joyi

*ISHTIROKCHI FIRMA BLANKIDA*

№: \_\_\_\_\_  
Sana: \_\_\_\_\_

Xarid komissiyasi

KAFOLAT XATI

Ushbu xat bilan bizning kompaniya \_\_\_\_\_ quyidagilarni tasdiqlaymiz:  
(kompaniya to‘liq nomi)

- qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik jarayonida emasligini.
- (mijozning nomi) bilan sud yoki arbitrajda emas jarayonida emasligini;
- ilgari tuzilgan shartnomalar bo‘yicha noto‘g‘ri bajarilgan majburiyatlar mavjud emasligini.

Imzolar:

Rahbar F.I.SH. \_\_\_\_\_

Bosh buxgalter (moliyaviy bo‘lim boshlig‘i) F.I.SH. \_\_\_\_\_

Huquqshunos (yuriskonsult) F.I.SH. \_\_\_\_\_

Muxr joyi

**Elektron tender ishtirokchisi to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar**

1	Yuridik shahsning to‘liq nomi, tashkiliy-huquqiy shakli ko‘rsatilishi lozim	
2	Davlat ro‘yxatidan o‘tganligi to‘g‘risida guvohnoma (ro‘yxatdan o‘tgan sanasi, raqami, ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ nomi)	
3	Yuridik manzili	
4	Aloqa uchun telefon raqami	
5	Bank rekvizitlari (to‘liq)	
6	Asosiy faoliyat turlari	

**Talab etilayotgan xizmatni ko‘rsatganligi bo‘yicha tajribasi**

Nº	Ko‘rsatilgan xizmat (ish) nomi	Xaridor nomi, manzili va aloqaga chiqish uchun ma’lumot	Xizmat ko‘rsatilgan sana	Izoh

(mansabdor shahsning imzosi)

(mansabdor shahsning F.I.SH. va lavozimi)

M.J.

Sana: “\_\_\_” 2022y.

## TASHKILOT BLANKI

\_\_\_\_\_ (tender predmeti va raqami ko'rsatilishi lozim) tender uchun texnik taklifi.

Nº \_\_\_\_\_

Sana: \_\_\_\_\_

Xarid komissiyasi

**Hurmatli xonimlar va janoblar!**

\_\_\_\_\_ xizmatini taqdim etish uchun \_\_\_\_\_-sonli tender hujjatlarni va No-sonli so'rovlarga yozma javoblarni (agar yozma so'rovlari va ularga javoblar mavjud bo'lsa, so'rov raqamlarini ko'rsating) o'rorganib chiqqanimizdan so'ng, biz ushbu bilan hujjatlarni oлganligimizni tasdiqlaymiz. Biz \_\_\_\_\_ (Tadbir ishtirokchisining to'liq nomi) \_\_\_\_\_ (taklif qilinayotgan xizmat turi nomini ko'rsating) \_\_\_\_\_ kun ichida xizmat ko'rsatishni taklif etmoqdamiz. Biz ushbu texnik taklifga to'liq rioya qilgan holda, tender g'olibi bilan tuziladigan shartnomaga bo'yicha tovarlarni yetkazib berish majburiyatini olamiz.

Biz takliilarni qabul qilishning yakuniy sanasi sifatida belgilangan sanadan boshlab 90 kun davomida ushbu taklif qoidalariga rioya qilishga rozimiz. Ushbu taklif biz uchun majburiy bo'lib qoladi va belgilangan muddat tugashidan oldin istalgan vaqtida qabul qilinishi mumkin.

Ilovalar:

- \_\_\_\_\_ varaqda taklif etilayotgan xizmatning texnik tavsiflarining qiyosiy jadvali;
  - texnik hujjatlar ro'yxati (broshyuralar, texnik ma'lumotlar varaqlari, soydalanish yo'riqnomalari va boshqalar yoki taklif etilayotgan mahsulotning to'liq va batafsil tavsifini o'z ichiga oлgan boshqa hujjatlar);
- Taqdim etilgan hujjatlar bog'langan, raqamlangan va vakolatli shaxsning imzosi va tender ishtirokchisining muhri bilan muhrlangan bo'lishi kerak; hujjatlar o'zbek / ingliz tillarida taqdim etilishi kerak.

(vakolatli shaxsning imzosi)

(vakolatli shaxsning ismi va lavozimi)

**Taklif etilayotgan xizmatning texnik tavsiflarining qiyosiy jadvali**

No	Parametr nomi	Texnik talablariga topshiriq muvofiq ko'rsatkichlar	Ishtirokchi taklifiga muvofiq ko'rsatkichlar	Izoh (talablarga muvofiqligi / muvofiq emasligi)
1				
2				

(vakolatli shaxsning imzosi) M.J.

*KORXONANING MUXRI TUSHIRILGAN XOS XATIDA (blankasi)***NARXLAR TAKLIFI***(xizmatt nomi)ga*

Sana: (tenderga taklif berilgan sana).

KIMGA: Xarid qilish komissiyasi.

Biz, quyida imzo qo'yuvchilar, tender hujjatlarini mukammal o'rganib chiqqanligimizni va tender mavzusi bilan, shu jumladan Buyurtmachining barcha talablari bilan tanishganligimizni ma'lum qilamiz.

Barcha keltirilgan talablarni o'rganib chiqib, raqobatbardosh tender shartlariga muvosiq maxsulotlarni (xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish) (etkazib berilayotgan maxsulot nomini kursating) taklif qilamiz:

To'lov shartlari \_\_\_\_\_;

To'lov muddati \_\_\_\_\_;

Maxsulotlarni yetkazib berish shartlari(xizmatlar) ko'rsatish, ishlarni bajarish) \_\_\_\_\_;

Kafolat shartlari \_\_\_\_\_;

Taklif qilingan narxlardan mahalliy va xorijiy fond birjalaridan joylashtirilgan aksiyalar umumiyligining foiz (%) ko'rinishida berilishi lozim. Boshqa ko'rinishda berilgan takliflar qabul qilinmaydi.

Biz ushbu taklifni qabul qilish muddati sifatida, tender takliflarini qabul qilish to'xtatilgan kundan boshlab 90 kun davomida, ushbu tender talablariga rioya qilishga rozilik bildiramiz. Ushbu tender biz uchun majburiy bo'lib qoladi va belgilangan muddat tugashidan avval istagan vaqtida qabul qilinishi mumkin.

Biz tushunamizki, sotib olish komissiyasi barcha ko'rsatgichlar va baxolash mezonlari bo'yicha eng yaxshi takliflarni qabul qilish huquqiga ega bo'lgani kabi, eng past narx taklifini qabul qilish majburiyatiga ega emas.

Sana: « \_\_\_\_ » 2021y/

To'liq ismi sharif. Rahbar va vakolatlari shaxsning imzosi.

Ishtirokchi korxona muhri qo'yish joyi.

*KORXONANING MUXRI TUSHIRILGAN XOS XATIDA (blankasi)***NARX JADVALI**

Xizmatlar nomi (ishlar)	O'Ichov birligi	Miqdor/ davr	Birlik narxi., sum QQS siz	Birlik narxi., sum QQS bilan	Summa, sum QQS siz	Summa, sum QQS bilan

To'liq ismi sharif. Rahbar va vakolatlari shaxsning imzosi

Ishtirokchi korxona muhri qo'yish joyi

**Imtiyozli soliq rejimini ta'minlaydigan va (yoki) moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda  
ma'lumotlarni oshkor qilish va taqdim etishni  
ta'minlamaydigan davlatlar va hududlar (offshore zonalar)  
RO'YXATI**

(Davlat soliq qo'mitasining 2020-yil 6-sentabrdagi 2020-34-son, Davlat bojxona qo'mitasining 2020-yil 29-avgustdaggi 01-02 / 15-42-son qarorlari va Markaziy bank Boshqaruvi O'zbekiston 2020-yil 5-sentabrdagi 20/1-son (rost. 12.10.2020 y. 2467-3-son)

<b>t/r</b>	<b>Hududning qisqa nomi</b>	<b>Hududning to'liq nomi</b>	<b>Raqamli kodi</b>
1	Amerika Samoasi	Amerika (Sharqiy) Samoasi	101
2	Angilya	Angilya (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma qirolligi)	102
3	Andorra	Andorra Knyazligi	103
4	Antigua va Barbuda	Antigua va Barbuda	104
5	Aruba	Aruba oroli (Niderlandiya Qirolligi)	105
6	Bagama orollari	Bagama orollari hamdo'stligi	106
7	Barbados	Barbados	107
8	Beliz	Beliz	108
9	Bermud orollari	Bermud orollari (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma qirolligi)	109
10	Britan hududlari	Hind okeanidagi Britaniya hududlari (Chagos oroli)	110
11	Bruney-Dorussalom	Bruney-Dorussalom davlati	111
12	Vayoming shtati	Vayoming shtati (Amerika Qo'shma Shtatlari)	112
13	Vanuatu	Vanuatu Respublikasi	113
14	Virgin orollari	Virgin orollari (Amerika Qo'shma Shtatlari)	114
15	Britaniya Virgin orollari	Britaniya Virgin orollari	115
16	Gvatemala	Gvatemala Respublikasi	116
17	Gibraltar	Gibraltar (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma qirolligi)	117
18	Gonkong-Syangan	Gonkong-Syangan maxsus ma'muriy hududi (Xitoy Xalq Respublikasi)	118
19	Grenada	Grenada	119
20	Delaver Shtati	Delaver Shtati (Amerika Qo'shma Shtatlari)	120
21	Dominika	Dominika Hamdo'stligi	121
22	Dominika Respublikasi	Dominika Respublikasi	122
23	Janubiy Georgiya va Janubiy Sandvich orollari	Janubiy Georgiya va Janubiy Sandvich orollari (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma qirolligi)	123
24	Djibuti	Djibuti Respublikasi	124
25	Kayman	Kayman orollari (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma qirolligi)	125
26	Kergelen orollari	Kergelen Orollari (Fransiya Respublikasi)	126
27	Kipr	Kipr Respublikasi	127
28	Kiribati	Kiribati Respublikasi	128
29	Kosta-Rika	Kosta-Rika Respublikasi	129
30	Kuk orollari	Kuk orollari (Yangi Zellandiya)	130
31	Labuan	Labuan Federal Hududi (Malay Federatsiyasi)	131
32	Liberiya	Liberiya Respublikasi	132
33	Livan	Livan Respublikasi	133
34	Lixtenshteyn	Lixtenshteyn Knyazligi	134
35	Mavrikiy	Mavrikiy Respublikasi	135
36	Madeyra oroli	Madeyra oroli (Portugaliya Respublikasi)	136

37	Makao-Aomin	Makao-Aomin maxsus ma'muriy hudud (Xitoy Xalq Respublikasi)	137
38	Maldiv	Maldiv Respublikasi	138
39	Malta	Malta Respublikasi	139
40	Marshall orollari	Marshall orollari Respublikasi	140
41	Monako	Monako Knyazligi	141
42	Montserrat	Montserrat (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma qirolligi)	142
43	Men oroli	Men oroli (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma qirolligi)	143
44	Nauru	Nauru Respublikasi	144
45	Niderlandiya Antillari	Niderlandiya Antil orollari (Niderlandiya Qirolligi)	145
46	Niue	Niue Respublikasi (Yangi Zellandiya)	146
47	Normand Gernsi oroli	Normandiya Gernsi oroli (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma qirolligi)	147
48	Normand Jersi oroli	Normandiya Jersi oroli (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma qirolligi)	148
49	Normand Olderni oroli	Normandiya Olderni oroli (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma qirolligi)	149
